

Taqqoslanish mumkinligi tamoyili esa kichik biznes subyektlari faoliyatini turli hudud, tarmoq va vaqt kesimida solishtirish imkoniyatini yaratadi. Bu maqsadda nisbiy ko'rsatkichlardan (foizlar, koeffitsiyentlar, ulushlar) foydalanish, formula va uslublarni standartlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Dinamik yondashuv tamoyili baholashda faqat bitta yil yoki davr natijalariga emas, balki bir necha yil davomida shakllangan tendensiyalarga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Bu orqali kichik biznes subyektining barqarorligi, o'sish sur'atlari va uzoq muddatli rivojlanish salohiyati aniqlanadi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda sun'iy intellekt asosidagi metodologiya an'anaviy yondashuvlarning cheklovlarini bartaraf etib, baholash jarayonining obyektivligi va aniqligini oshiradi. Mazkur yondashuv ko'p omilli tahlil va ishonchli prognozlash imkonini yaratib, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Xodiyev B. Yu., Qosimova M. S., Samadov A. N. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*. – T.: TDIU, 2010.

2. Sharopova N. *O'zbekiston kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish tendensiyalari*. — TDIU ilmiy to'plami, 2025.

3. Neely A., Gregory M., Platts K. (2005). *Performance measurement system design: A literature review and research agenda*. *International Journal of Operations & Production Management*, 25(12), 1228–1263.

4. Kaplan R., Norton D. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Harvard Business School Press.

## **YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI**

***Mirzatov Bahtiyor Tohirovich***

*Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*


Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt vositalarining keng joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish jarayonlariga yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Ayniqsa, yosh tadbirkorlarning innovatsion salohiyati va raqamli texnologiyalarni tez o'zlashtirish qobiliyati sun'iy intellekt asosidagi yechimlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Sun'iy intellekt vositalari biznes-rejalashtirish, bozor kon'yunkturasini tahlil qilish, iste'molchilar xatti-harakatini prognozlash, moliyaviy risklarni baholash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalardan foydalanish yoshlar tadbirkorligida resurslardan oqilona foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish

hamda faoliyat samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining tadbirkorlik jarayonlariga integratsiyasi yetarli darajada nazariy va uslubiy jihatdan tizimlashtirilmagan.

O'zbekiston sharoitida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa sifatida belgilangan. Biroq yosh tadbirkorlar tomonidan sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish mexanizmlari, ularning iqtisodiy samaradorligi va metodik ta'minoti ilmiy jihatdan chuqur o'rganilmagan. Shu sababli, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Zamonaviy yosh tadbirkor - bu 35 yoshgacha bo'lgan va kichik xodimlarga ega bo'lgan kichik biznesga ega bo'lgan shaxs. Yosh tadbirkorlarning o'ziga xos xususiyati - bu ularning tavakkal qilishga va biznesiga innovatsiyalarni joriy etishga moyilligidir. Yosh tadbirkorlar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning 70% dan ortig'i o'z bizneslarini 25 yoshga to'lmasdan oldin boshlagan<sup>214</sup> deydi MDH mamlakati olimlari Malikov R.I., Komarov A.G., Bogdanova S.Yu.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda uchta asosiy tarkibiy omillar — ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional omillar kompleks ta'sir ko'rsatadi. Har bir omil alohida ko'rib chiqilganda, u yoshlarning biznesga kirishish motivatsiyasini shakllantirish, resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish va tadbirkorlik muhiti barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.



**1-rasm. Yoshlar tadbirkorligi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar kompleksining ilmiy asoslari<sup>215</sup>**

Ijtimoiy omillar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va tayyorgarligini belgilab beruvchi asosiy psixologik hamda ijtimoiy ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy omillar esa bozor sharoitlari, resurslar, infratuzilma va hududiy rivojlanish darajasi orqali tadbirkorlikning real imkoniyatlarini shakllantiradi. Institutsional omillar esa davlat qo'llab-quvvatlashi, normativ-huquqiy baza, startup infratuzilmasi va ta'lim tizimi orqali yoshlar uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Quyida yoshlar tadbirkorligini tashkil etishga ta'sir qiluvchi ushbu omillar majmui

<sup>214</sup> Malikov R. I., Komarov A. G., Bogdanova S. Yu. Sovremenne tendensii formirovaniya organizatsionnoy kultur molodejnogo predprinimatelstva // Problemy teorii praktiki predprinimatelstva. — 2014. — S. 172–175.

<sup>215</sup> Muallif ishlanmasi

chizma ko'rinishida keltirilgan (1-rasm). Rasmda yoshlar tadbirkorligini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar majmui tizimli yondashuv asosida guruhlangan. Ushbu modelda omillar uchta asosiy blok — ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional kategoriyalar orqali ifodalangan bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'langan holda yoshlar tadbirkorligining rivojlanish jarayonini belgilab beradi.

Iqtisodiy omillar esa yosh tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan moddiy va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasini, hududiy iqtisodiy sharoitlarni va mavjud preferensiyalarni belgilaydi. Ularning har biri tadbirkorlik jarayonida real imkoniyatlar va cheklovlarni yuzaga chiqaradi. Masalan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi yoki bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi yoshlarning startaplarini amalga oshirishda asosiy to'siq bo'lishi mumkin. Aksincha, hududiy iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi va davlat tomonidan beriladigan iqtisodiy imtiyozlar esa yangi biznes g'oyalarining shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Malikov R.I., Komarov A.G., Bogdanova S.Yu. *Sovremenne tendensii formirovaniya organizatsionnoy kultur molodejnogo predprinimatelstva // Problem teorii praktiki predprinimatelstva. — 2014. — S. 172–175.*

2. Andreeva O.V., Suxoveeva A.A. *Molodejnoe predprinimatelstvo i effektivne instrument yego razvitiya // CITISE. – 2020. – № 2 (24). – S. 385–393.*

3. Bogdanova, I.M. *Gosudarstvennoe regulirovanie i infrastruktturnoe obespechenie regionalnoy sistem molodejnogo predprinimatelstva v sfere turizma : avtoref. dis. ... kand. ekon. nauk. – Sankt-Peterburg, 2021. – 26 s.*

## **TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA MOLIVAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS NAZORATNING AHAMIYATI**

***Zokirov Ismoiljon Ibroximovich***

*“Biznesni rivojlantirish banki” ATB yetakchi menejeri Mustaqil tadqiqotchi*

***Annotatsiya.*** Mazkur tadqiqot tijorat banklarida moliyaviy jinoyatlarning oldini olishda komplaens-nazorat tizimining institutsional, tashkiliy va texnologik jihatlarini kompleks tahlil qiladi. Ishda komplaens tizimining formal nazorat funksiyasidan preventiv moliyaviy xavfsizlik mexanizmiga evolyutsiyasi asoslab beriladi hamda raqamli banking sharoitida risklarni boshqarishning dinamik modeli taklif etiladi.

***Kalit so'zlar:*** komplaens-nazorat, moliyaviy jinoyatlar, AML/CFT, riskka asoslangan yondashuv, tranzaksiya monitoringi, bank xavfsizligi.

Global moliya tizimida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, transchegaraviy kapital oqimlarining kengayishi va fintech integratsiyasi tijorat banklari faoliyatida moliyaviy jinoyatlar xavfini oshirmoqda. Ayniqsa, jinoiy